

UDK:911.375.3

Temirov Zokirjon Abdilvoxidovich
Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Andijon davlat universiteti

O'ZBEKISTON SHAHARLARI VA SHAHAR
AGLOMERATSIYALARINING MINTAQALAR RIVOJLANISHIDAGI
AHAMİYATINI TADQIQ ETISH

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston shaharlari, ularning hududlar bo'yicha tarqalishi va ularga xos xususiyatlar ilmiy tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: shahar, aglomeratsiya, o'sish, tarqalish, mintaqa, Zarafshon, Farg'ona, Quyi Amudaryo.

Temirov Zokirjon Abdilvoxidovich
associate professor of the Department of Geography,
Doctor of Philosophy in Geography
Andijan State University

RESEARCHING THE IMPORTANCE OF UZBEKISTAN CITIES AND
URBAN AGGLOMERATIONS IN THE DEVELOPMENT OF REGIONS

Annotation: The article deals the scientific analysis of the cities of Uzbekistan, their distribution across the regions and their features were made.

Key words: city, agglomeration, growth, distribution, region, Zarafshan, Fergana, Kuyi Amudaryo.

Jahon iqtisodiyotining globallashuv sharoitida shaharlar va urbanizatsiya jarayoni to'g'risida fikrlar juda ko'p tadqiqotlar dunyoni kun sayin urbanizatsiyalashib borayotganligidan dalolat bermoqda. Ma'lumki, urbanizatsiya dastavval shaharlarning, ayniqsa katta va yirik shaharlar sonining, shahar aholisi ulushining o'sishini, shahar turmush tarzining tarqalishini anglatadi. "O'sish", "tarqalish" kabi so'zlar urbanizatsiya jarayoni bilan birgalikda "shahar" tushunchasiga borib taqaladi. Bunda shahar boshqa aholi punktlaridan qaysi belgilari bilan farq qilishi masalasi ham ahamiyatlidir.

O‘zbekistonda jahon mamlakatlarning ko‘pchiligida bo‘lgani kabi iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta‘minlash ko‘p jihatdan mamlakatning urbanistik salohiyatidan oqilona foydalanish bilan bog‘liq. Bunda iqtisodiyotning katta qismi to‘plangan “rivojlanish qutblari”, katta va yirik shaharlar juda muhim, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy taraqqiyotida erishgan ulkan muvaffaqiyatlar bilan jahonni lol qoldirgan Yaponiya, Koreya Respublikasi, Tayvan kabi mamlakatlar islohotlarining dastlabki bosqichlarida asosiy e‘tiborlarini katta va yirik shaharlardagi sanoatning bir ikki tarmog‘ini rivojlantirishga qaratgan. Bu yo‘nalishda erishgan yutuqlari esa boshqa nisbatan qoloq tarmoqlarning rivojlanishiga turtki bo‘lganligini mazkur mamlakatlarning tajribalari ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlar kabi dengiz va okeanlarga bevosita chiqish yo‘liga, ulkan shaharlar va ular asosida tashkil etilgan qator maxsus (ochiq) iqtisodiy zonalarga ega bo‘lmasa ham, har holda nisbatan rivojlangan shaharlar va shaharchalar tizimiga ega. Shahar aholi punktlari tizimi mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shaharlar, ayniqsa katta va yirik shaharlarning aksariyat qismi ham, ular joylashgan hududlarni ham iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash uchun qulay geografik o‘rinlar va ularga mos bo‘lgan iqtisodiy salohiyatga ega. Ta‘kidlash joizki, katta va yirik shaharlarga boy mintaqalarda industrial tarmoqlar ham nisbatan yaxshi rivojlangan. Respublika mintaqalarida kattaligi bilan aholisining soni o‘rtasida aloqadorlik juda sust. Bunday holat aholini areal shaklda, asosan suv resurslari mavjud va sug‘orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda joylashganligidan dalolat beradi. Shunday hududlar qatoriga Farg‘ona va Zarafshon vodiylari, Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalari hamda sun‘iy sug‘orish tizimlari barpo etilgan Mirzacho‘l va Qarshi dashti kiradi.

O‘zbekiston mintaqalarini kattaligi bo‘yicha uchta guruhga taqsimlash mumkin:

- katta maydonlarga ega: Quyi Amudaryo va Zarafshon;
- oʻrta maydonlarga ega: Janubiy va Mirzachoʻl;
- kichik maydonlarga ega: Toshkent va Fargʻona.

Mazkur mintaqalar aholi zichligi boʻyicha ham bir – biridan keskin farq qiladi. Fargʻona va Toshkent mintaqalarida aholi zichligi nihoyatda yuqori koʻrsatkichlar bilan ajralib turadi. Undan keyingi oʻrinlarda joylashgan mintaqalarda zichlik koʻrsatkichi respublika boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkichga yaqin. Qolgan Quyi Amudaryo va Zarafshon mintaqalarida u ancha past darajalarga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur holatni mintaqalarda maydoni juda katta Ustyurt platosi va Qizilqum choʻlining katta qismlarini joylashganligi, hamda yaylov chorvachiligining keng tarqalganligi bilan tushuntirish mumkin. Taʼkidlash joizki, aynan aholi zichligi eng katta boʻlgan mintaqalar shahar aholisining mutlaq va nisbiy koʻrsatkichlarining yuqoriligi bilan ham ajralib turadi. Shahar aholisining ulushi Toshkent mintaqasida 72,1 foizni, Fargʻona mintaqasida esa 57,8 foizni tashkil etadi. Qolgan mintaqalarda esa ushbu koʻrsatkich 40 – 45 foiz oʻrtasida oʻzgarib turadi. Mintaqalar oʻrtasida urbanizatsiya darajalaridagi farq 32 foizga boradi. Bu juda katta koʻrsatkich hisoblanadi.

Maʼlumki, urbanizatsiyalanishning haqqoniy darajasi shahar aholi punktlari tarmogʻida katta va yirik shaharlarning soni va salmogʻi bilan belgilanadi. Aynan ana shunday yondoshuv urbanistik vaziyatni toʻgʻri baholashga imkon beradi. Bugungi kunda Oʻzbekistonda mavjud shaharlarning umumiy soni 120 ga teng. Ularning aksariyat qismi Toshkent va Fargʻona mintaqalariga, eng kami esa Mirzachoʻlga toʻgʻri keladi. Ayni paytda Toshkent mintaqasida mavjud shaharlarning 17 tasi yoki 14,3 foizi joylashgan. Bir qaraganda poytaxt mintaqasiga xos koʻrsatkichlar unchalik katta emasdek tuyuladi. Aslida “urbanizatsiya” jarayonida son emas, balki sifat, yana ham aniqroq qilib aytganda, “shahar turmush tarzini” eltuvchi shaharlarning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday shaharlarga esa Toshkent va Fargʻona mintaqalari birmuncha boy hisoblanadi. Ushbu fikrni faqat shaharlar aholisining soni va ulushi

tasdiqlaydi. Faqat shaharlar aholisining ulushi Toshkent mintaqasida 33,8 foizga, Farg‘ona mintaqasida esa, 24,4 foizga teng. Shaharlarning atigi 25,3 foizi mavjud mazkur mintaqalarda respublikada mavjud faqat shaharlar aholisining 58,2 foizi to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda aholisining soni 100 ming kishidan 250 ming kishigacha bo‘lgan 10 ta katta shahar, aholisining soni 250 ming kishidan 500 kishigacha boradigan 8 ta juda katta shahar, aholisining soni 500 ming kishidan 1 mln kishigacha ikkita yirik shahar (Namangan va Samarqand) va aholisining soni 1 mln kishidan ortiq juda yirik shahar mavjud. Shunday qilib, katta va yirik shaharlarning umumiy soni 31 taga teng bo‘lib, ularda jami shahar aholisining 28,4 foizi istiqomat qiladi.

Katta va yirik shaharlar aholisi respublika mintaqalari bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan. “Urbanizatsiyani eltuvchi” shaharlar sonining 23,5 foizi va ularda mavjud aholining 44, foizi Toshkent mintaqasida joylashgan. Ushbu ko‘rsatkich Farg‘ona mintaqasida tegishli tarzda 29,4 va 25,2 foizga, Zarafshon mintaqasida 16,5 va 14,4 foizga teng. Qolgan mintaqalardagi katta va yirik shaharlar aholisiga xos ko‘rsatkichlar 2,6 foizdan 6,9 foizga o‘zgaradi, xolos. Toshkent mintaqasida jami katta va yirik shaharlarga o‘rtacha 685,5 ming kishi (Toshkent shahrini hisobga olmaganda 144,3 ming kishi), Farg‘ona mintaqasida 309,0 ming kishi, Zarafshon mintaqasida 294,0 ming kishi, qolgan mintaqalarda esa ancha past ko‘rsatkichlar to‘g‘ri keladi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda nisbatan 20 ta o‘rta shahar (aholisining soni 50 – 100 ming kishi) va 82 ta kichik shahar (aholisining soni 50 ming kishigacha) mavjud. O‘rta shaharlarning katta qismi Toshkent (3 ta), Farg‘ona (5 ta), Quyi Amudaryo (4ta) va Zarafshon (4 ta) mintaqalarida va atigi 1 tasi Mirzacho‘l mintaqasida joylashgan. O‘rta shaharlar ichida ancha vaqtdan beri mavjud Xo‘jayli, Asaka, Shahrixon, Shahrisabz, Koson, Denov, Guliston, Bekobod, Xiva kabilarbilanbir qatorda kuni – kecha mazkur guruhga o‘tgan Kosonsoy va Chortoq

(Namangan viloyati) shaharlari ham rivojlanib bormoqda. Ushbu shaharlarda oʻrtacha aholi soni salkam 67 ming kishini tashkil etadi.

Oʻrta shaharlarning katta qismi rayon tashkil etuvchi markazlar sifatida paydo boʻlgan va rivojlangan (Beruniy, Shahrixon, Koson, Kattaqoʻrgʻon, Denov, Parkent va boshqalar). Qishloq xoʻjaligi xom ashyosini qayta ishlovchi sanoat yaxshi rivojlangan shaharlar qatoriga Toʻrtkoʻl, Xoʻjayli, Shahrisabz, Kosonsoy, Urgut, Yangiyoʻl kabilarni kiritish mumkin. Rekreatsiya va turizm, sogʻliqni saqlash sohasi yaxshi rivojlangan, shahar hosil qiluvchi funksiyalarga egalar qatoriga Xiva va Chortoq, transport tuguni sifatida muhim rol oʻynayotganlar qatoriga Kogon va boshqa shaharlarni qoʻshish mumkin.

Respublika kichik shaharlarga (aholisining soni 50 ming kishigacha boʻlgan) boy hisoblanadi. Mana shunday 82 ta shaharda jami 1905,9 ming kishi yashaydi, kichik shaharlarda oʻrtacha aholi soni 23,2 ming kishiga teng. Mazkur shaharlar soni mintaqalar boʻyicha birmuncha tekis taqsimlangan. Eng koʻp Zarafshon (21 ta) va Fargʻona (17 ta) mintaqalari bilan bir navbatda bunday shaharlarga nisbatan kam boʻlgan Quyi Amudaryo (9 ta) mintaqasi ajralib turadi. Bunday shaharlarning ichida togʻ – kon sanoati (Gazli, Uchquduq, Nurota, Shargʻun va boshqalar), agrosanoat (Dashtobod, Gagarin, Paxtakor, Oqqoʻrgʻon, Pskent va boshqalar), elektro – energetika (Gʻazalkent, Shirin, Taxiatosh, Uchqoʻrgʻon, Xonobod va boshqalar) markazlari sifatida vujudga kelgan shaharlar muhim oʻrin egallaydi.

Shaharlar, ayniqsa katta va yirik shaharlar tarmogʻi industrilashtirish jarayoni va darajasi bilan uzviy bogʻlangan. Sanoat rivojlanish darajasi (sanoat mahsuloti hajmi) boʻyicha respublikada Toshkent (sanoat mahsulotining 1/3 qismi), Fargʻona (22,3 foizi), Zarafshon (21,6 foizi) mintaqalari yetakchilik qiladi. Uchta mintaqaning sanoat mahsulotidagi hissasi 3/4 qismdan oshadi, katta va yirik shaharlar aholisi sonidagi hissasi deyarli 73 foizni tashkil etadi. Bunday aloqadorlik yuqorida keltirilgan fikrlarni tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baranskiy N.N. Ekonomicheskaya geografiya. Ekonomicheskaya kartografiya.–M.: geografiya, 1956.
2. Lappo G.M. Rasskazy o gorodax. – M., Мысл. 1972. S. 3.
3. Merlen P. Gorod. Kolichestvennye metody izucheniya. – M., «Progress», 1977. S. 18
4. Sidorenko A.A. Informatsionnye i politicheskie aspekty razvitiya krupnykh gorodov Rossii v 2000-ye gody. Avtoreferat na soiskanii uchyoniye stepeni kandidata geograficheskix nauk. M., 2010. S.11
5. Xorev B.S. Problemy gorodov. – Moskva, :Мысл, 1975. S. 49.
6. Alexadersson (Gunnar). The Indusyrial Structure of Amerikan cities. Lincoln, 1956.
7. Griffon (Jean-Marie). Les activites tertiaries. – In “consammation”, 1963, N3, p. 23-60.
8. Chabot G. – In: Tralte de geographieurbaine. Op. cit.
9. Harris (Shancy) D. A Functional classification of cities. – In: The United States. Geographical Review. New York, 1943, P. 86-99.
10. Qayumov A.A. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining mintaqa rivojlanishidagi ahamiyatini tadqiq etishning ilmiy asoslari // Geografiya va globalizatsiya: nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Andijon, 2018. –B. 95-11.